



Received: January 8, 2026  
Accepted: February 23, 2026  
Available online: February 25, 2026

## Xumora Najimova

Tayanch doktorant  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adbiyoti universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### STILIZATSIYALASHGAN FOLKLORIZMLAR TADQIQI: STILIZATSIYAMI YOKI MODIFIKATSIYA?

#### ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning maqsadi stilizatsiyalashgan folklorizmning o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilish jarayoni, nazariy asoslari va tipologik talqinlarini tizimli ravishda yoritib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalar belgilab olindi: folklorizmlar tipologiyasi hodisasini tahlil qilish; stilizatsiya va modifikatsiya tushunchalarining o'zaro nisbatini ilmiy asosda aniqlashtirish; janr, motiv, ritm va mifologik obraz stilizatsiyasining poetik funksiyasini ochib berish kabilar belgilab olingan.

Ish jarayonida tarixiy-qiyosiy, tipologik, struktur-semantik va konseptual tahlil metodlari qo'llanildi. Tahlillarni amalga oshirishda B.Sarimsoqov, I.Yormatov, L.Sharipova va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi, ularga metodologik asos sifatida tayanildi. Folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi munosabat stilizatsion folklorizmlar misolida ilmiy asosda o'rganildi. Tahlil uchun Usmon Azim va Yo'ldosh Eshbek ijodi obyekt sifatida tanlandi.

Tadqiqot natijasida folklorizmlarning muhim tarmog'ini murakkab folklorizmlar, murakkab folklorizmlarning ichki tarmoqlaridan birini esa "Stilizatsion folklorizmlar"ni o'rganish tashkil etishi aniqlandi. Stilizatsion folklorizmlar murakkab folklorizmning mustaqil ko'rinishi bo'lib, o'tgan asrning 70-80-yillarida fanga kirib keldi, ammo uni janr, motiv, obraz va ritm deya turlarga bo'lib tasniflash 2010-2011-yillardan boshlandi. Murakkab folklorizmlar sintezlashgan, analitik va stilizatsion folklorizmlar kabi tiplarga, shuningdek janr, obraz, motiv hamda

## Khumora Najimova

PhD Student  
Alisher Navoiy Tashkent State University of  
the Uzbek Language and Literature  
Tashkent, Uzbekistan  
ORCID iD: 0009-0007-3933-5878  
E-mail: xumoranajimova@gmail.com

### STUDY OF STYLIZED FOLKLORISMS: STYLIZATION OR MODIFICATION?

#### ABSTRACT

The aim of this study is to systematically clarify the process of studying stylized folklorisms in Uzbek literary studies, along with their theoretical foundations and typological interpretations. To achieve this goal, several tasks were undertaken: analyzing the typology of folklorism, scientifically defining the relationship between stylization and modification, and revealing the poetic functions of genre, motif, rhythm, and mythological image stylization.

The research employed historical-comparative, typological, structural-semantic, and conceptual methods. The scholarly views of B.Sarimsoqov, I.Yormatov, and L.Sharipova served as the methodological basis and were comparatively analyzed. The relationship between folklore and written literature was examined through stylized folklorisms, using the works of Usmon Azim and Yoldosh Eshbek as primary material.

The findings show that the study of complex folklorisms is a key direction in literary studies, and stylized folklorisms represent one of its internal branches. These folklorisms emerged in scholarly discourse in the 1970s–1980s, while their classification into genre, motif, image, and rhythm stylization began developing more actively after 2010. Complex folklorisms are categorized into synthesized, analytical, and stylized types, each with its own subtypes and research approaches.

The study also examined the comparison between metaphorization and stylization, as well as adaptations of genre, image, and rhythm in drama and children's literature. It was established that not all stylization can be considered

ritm stilizatsiyasi kabi turlarga ajratilgan holda tasniflanganligi va mazkur yoʻnalishlarning har biri doirasida muayyan izlanishlar olib borilganligi aniqlandi. Metoforizatsiya va stilizatsiya hodisasining qiyosiga, dramatik asarlar va bolalar adabiyotida janr, obraz hamda ritm oʻzlashuviga doir taqiqotlar koʻrib chiqildi. Bundan tashqari, har bir stilizatsiya modifikatsiya emasligi, modifikatsiya esa strukturaviy va funksional yangilanishni talab qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur tushunchalar oʻrtasidagi tafovut koʻrsatib berildi.

Tadqiqot davomida bir necha ilmiy xulosalarga kelindi. Stilizatsion folklorizmlar tadqiqi folklorizmlarni tip va turlarga boʻlib tasniflashdan boshlanadi. Stilizatsiyalashuv jarayoni L.Sharipova tomonidan maxsus taqiq etilgan va turlarga boʻlib tasniflangan. Adabiyotshunoslikka doir taqiqotlarda janr stilizatsiyasi va modifikatsiya hodisalari aynanlashtirilganligi munozarali boʻlib qolmoqda. Tahlillarda obraz va motivlar genezisi toʻliq yoritilmagan. Usmon Azimning “Baxshiyona” asari tahlilida takrorlarga yoʻl qoʻyilganligi, tahlillar taqirizini talab etadi. Stilizatsiya xalq ijodining ikkinchi umri boʻlib, uning umrboqiyiligini taʼminlovchi muhim omil hisoblanadi.

**Kalit soʻzlar:** yozma adabiyot, folklorizm, stilizatsiya, murakkab folklorizm, modifikatsiya, janr stilizatsiyasi, ritm, obraz, motiv, poetik sintez.

## KIRISH

Zamonaviy oʻzbek sheʼriyati taraqqiyotida milliy poetik tafakkur va xalq ogʻzaki ijodi oʻrtasidagi uzviy aloqadorlik masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Folklor nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki milliy ong, kognitiv xotira va badiiy tafakkurning genetik manbasi sifatida zamonaviy adabiy jarayonda faol ishtirok etmoqda. Ayniqsa, folklor birliklarining toʻgʻridan-toʻgʻri koʻchirilishi emas, balki ularning stilizatsiyalashgan shaklda qayta yaratilishi hozirgi oʻzbek sheʼriyatining muhim poetik xususiyatlaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda.

Folklor poetikasining individual ijodkor tafakkurida qayta talqin qilinishi masalasi adabiyotshunoslikning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi. Xususan, murakkab folklorizmlar doirasida stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlarning poetik tabiati, ularning badiiy-estetik funksiyasi hamda individual uslub bilan munosabati mazkur mavzuning ilmiy jihatdan qanchalik muhimligini tasavvur qilish uchun yetarli.

Yozma adabiyot va folklor munosabatlari adabiyotshunoslikda keng koʻlamda va chuqur oʻrganilgan. Folklorizmlar nafaqat oʻzbek balki rus, ingliz, turk, ukrain, ozar adabiyotshunoslari tomonidan tahlil etilgan. Jumladan, K.V. Chistov, M.Azadovskiy,

modification; modification requires structural and functional transformation, which distinguishes it from stylization.

Several conclusions emerged. Classification of stylized folklorisms into types and subtypes remains the starting point. Although L.Sharipova made important contributions to stylization theory, some issues remain controversial, especially the identification of genre stylization with modification. Origins of images and motifs are still insufficiently explored. Analyses of Usmon Azim’s Baxshiyona reveal repetitions requiring reassessment. Ultimately, stylization is the “second life” of folklore, ensuring continuity and development in modern literature.

**Key words:** written literature, folklorism, stylization, complex folklorism, modification, genre stylization, rhythm, image, motif, poetic synthesis.

Dimshits, U.Dalgat, P.S. Vhodsev, I.Shot, G.A. Levinton, V.Agrba kabi qator olimlarning izlanishlarini e'tirof etish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda og'zaki va yozma adabiyot munosabati, ijokorlarning folkloridan ta'sirlanishi masalalari keng yoritilgan.

O'zbek adabiyotshunoslari ham ushbu masala borasida jiddiy tadqiqotlar olib borishdi. Jumladan, adabiyotshunosligimizda yozuvchilar ijodi va xalq ijodiyotining falsafiy mazmun va badiiy talqin borasidagi mutanosibli, lirik janrlar va motivlarning xalqona asoslari, milliy ruh va xalqona tafakkur ifodasi, xalq an'ana va ma'naviy qarashlarining yozma talqini, folklorizmlarning nazariy tabiati, tasnifi, tipologik xususiyatlari, folklor va folklorizm istilohlarining mazmuniy tafovutlari, folklorizmlarni butun davr adabiyotida aks etishi, o'zaro ta'sirlashuv masalasi singari ilmiy-nazariy muammolar kesimida tadqiq qilingan. Bundan tashqari folklorizmlarning turlar kesimida tadqiq etilishiga doir bir qancha izlanishlar olib borilgan. Bizning maqsadimiz esa murakkab folklorizmlarning bir ko'rinishi – stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlarning o'zbek adabiyotshunosligidagi tadqiqi masalasini o'rganishdir.

Stilizatsion folklorizm – bu yozma adabiyotda xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan motiv, ritm, obraz, janr kabi hodisalarni qayta ishlash va ularga qayta umr berish jarayonidir. Yozma adabiyotda folklor namunalarini stilizatsiya qilishning g'oyaviy-badiiy asoslarini S.P.Vihodsev tadqiqotlarida shunday tushuntiradi: “Adabiyot tarixida, – deb yozadi u, – san'atkor o'z asari tarkibida folklor motivi va sujetidagina foydalanib qolmay, ayni paytda tasvirning boshqa prinsiplarini ham, shu jumladan, uslubni ham o'zlashtirganligini ko'rsatuvchi misollar oz emas. Bunda avtor u yoki bu ertak, blina, qo'shiqning yozma adabiy variantini yozishni ko'zlagandek ko'rinadi” [Vihodsev, 1989]. Demak, stilizatsiya folklor bilan ijodkor o'rtasidagi adabiy-estetik munosabatni aniqlovchi muhim ko'rsatkichdir. Shunga qaramay stilizatsiyaning nazariy talqini turli manbalarda turlicha izohlanadi. M.Baxtin: “Stilizatsiya deb o'zgalar uslubini o'zining badiiy niyatiga moslab yo'naltirishga aytiladi. Muallif tomonidan ongli ravishda qo'llanilgan bu usul tasvirlanayotgan badiiy lavhalarning etnografik kontekstini shakllantirish va personajlar nutqining tabiiyligini ta'minlashga xizmat qiladi” [Baxtin, 1972; 285] – deb izohlasa, “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha – o'zbekcha izohli lug'ati” da: “Stilizatsiya biror yozuvchi ijodiga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlarga, ifoda usuliga, tili va uslubiga asoslanib yangi asar yaratish” [Hotamov & Sarimsoqov, 1979; 296] – deya ta'riflanadi.

Biz ham avvalgi maqolalarimizda stilizatsiya atamasiga berilgan ta'riflar va B.Sarimsoqov, I.Yormatov, L.Sharipovalarning folklorizm tipologiyasi, stilizatsion folklorizmlarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlariga muayyan darajada to'xtalgan edik [Najimova, 2025]. Aslida, bu masala o'zbek adabiyotshunosligida XX asrning 70-80-yillaridan boshlab olib borilgan tadqiqotlarda yoritib kelinmoqda. Adabiyotshunoslar tomonidan folklorizmlar tipologiyasi dastlab ilmiy asosda ishlab chiqildi. Folklorizmlarning oddiy va murakkab turlarga ajratilishi, murakkab folklorizm tarkibida analitik, sintezlashgan va stilizatsion ko'rinishlarning belgilanishi nazariy poydevor vazifasini bajardi. Keyingi tadqiqotlarda stilizatsiya progressiv va regressiv shakllarda talqin qilindi, janr, motiv, ritm va obraz stilizatsiyasi kabi tasnifiy mezonlar taklif etildi.

Stilizatsion folklorizmga doir monografik tadqiqotlarda folklor va zamonaviy she'riyat aloqalari, baxshiyona ifoda tarzining yuzaga kelishi, adabiy alla va adabiy yor-yor hodisalari, mifologik obrazlar stilizatsiyasi kabi masalalar alohida o'rganildi. Dramaturgiya va bolalar adabiyotida folklor stilizatsiyasi ham tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqildi. Shuningdek, janr modifikatsiyasi, diffuziya va transformatsiya tushunchalari folklorizm bilan bog'liq holda tahlil qilindi

Mavjud tadqiqotlar stilizatsiya hodisasini turli qirralarda yoritgan bo'lsa-da, bir qator metodologik muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo, stilizatsiya va modifikatsiya tushunchalari ko'pincha aynanlashtirib yuborilmoqda. Bu esa janr o'zgarishi bilan stilistik o'xshatish o'rtasidagi nazariy farqni noaniq holatga keltirib qo'yimoqda.

Ikkinchidan, progressiv va regressiv stilizatsiya mezonlari har doim ham aniq belgilanmagan. Ayrim tadqiqotlarda shakliy o'xshatish va mazmuniy transformatsiya chegaralari aralashib ketgan.

Uchinchidan, stilizatsiyalashgan folklorizmlarning poetik funksiyasi, ya'ni ularning matn ichidagi estetik vazifasi, milliy ong va tarixiy xotirani ifodalashdagi roli yetarlicha tizimlashtirilmagan.

To'rtinchidan, Usmon Azim va Yo'ldosh Eshbek ijodidagi stilizatsion mexanizmlar ko'pincha umumiy folklorizm doirasida tilga olinadi, biroq ular alohida nazariy konsepsiya asosida kompleks tahlil qilinmagan.

Beshinchidan, "Baxshiyona" turkumi bir qancha tadqiqotlar manbasi sifatida tanlanganligi hamda ularda takrorlar va o'xshashliklar borligi aniqlandi. Mazkur jihatlar tadqiqot mavzusi doirasidagi ilmiy bo'shliqni tashkil etadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar stilizatsiyalashgan folklorizmlar tadqiqi va unda "Baxshiyona" turkumiga bo'lgan munosabatni nazariy jihatdan qayta ko'rib chiqish va yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Shu asosda ushbu tadqiqotning maqsadi stilizatsiyalashgan folklorizmning o'zbek adabiyotshunosligidagi nazariy asoslari, Usmon Azim va Yo'ldosh Eshbek ijodidagi ahamiyati va poetik funksiyasini tizimli ravishda aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- stilizatsiya va modifikatsiya tushunchalarining nazariy chegaralarini aniqlashtirish;
- progressiv va regressiv stilizatsiya mezonlarini qayta baholash;
- janr stilizatsiyasining poetik funksiyasini ochib berish;
- "Baxshiyona" tahlillarini qiyosiy aspektda o'rganish.

## **TADQIQOT METODLARI**

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tipologik, struktur-semantik va konseptual tahlil metodlaridan samarali foydalanildi. O'zbek va xorij adabiyotshunosligida yaratilgan stilizatsiya muammosiga doir monografiyalar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar nazariy-metodologik asos vazifasini bajardi. Ilmiy qarashlar o'zaro muqoyasa qilinib, stilizatsiya va modifikatsiya terminlari o'rtasidagi metodologik tafovut aniqlashtirildi.

Avvalo, XX asrning 70 – 80-yillaridan boshlab ishlab chiqilgan folklorizm tipologiyasiga oid konsepsiyalar nazariy-metodologik asos sifatida tahlil qilinadi. Oddiy va murakkab folklorizm tasnifi, murakkab folklorizm tarkibidagi analitik, sintezlashgan va stilizatsion ko‘rinishlar ilmiy-nazariy mezon sifatida qayta ko‘rib chiqiladi. Shu jarayonda stilizatsiya va modifikatsiya tushunchalarining chegaralarini aniqlashtirishda konseptual-tahliliy metod qo‘llandi. Bu usul yordamida janr o‘zgarishi (modifikatsiya) bilan uslubiy o‘xshatish (stilizatsiya) o‘rtasidagi farqlar nazariy jihatdan asoslandi.

Qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida folklor an‘analarining og‘zaki ijodan yozma adabiyotga o‘tish jarayoni hamda tarixiy-madaniy sharoit ta‘sirida yuzaga kelgan semantik o‘zgarishlar ochib berildi. Bu metod stilizatsiyalashgan folklorizmni milliy ong, tarixiy xotira va adabiy-estetik meros bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilish imkonini berishi bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

Struktur-semantik va funksional tahlil usullari yordamida stilizatsiyalashgan folklorizmlarning matn ichidagi poetik vazifasi aniqlanadi. Xususan, ularning obraz yaratish, kompozitsion yaxlitlikni ta‘minlash, milliy ruhni ifodalash hamda tarixiy xotirani tiklashdagi roli tizimli yoritishga erishildi.

Shuningdek, janr modifikatsiyasi stilizatsiyalashgan folklorizm bilan bog‘liq holda qayta talqin qilinadi. Bu jarayonda intertekstual yondashuv ham qo‘llanib, folklor matnlari bilan zamonaviy badiiy matnlar o‘rtasidagi motiv bilan bog‘liq va obrazli aloqalar aniqlashtiriladi.

## NATIJARLAR

O‘zbek adabiyotshunosligida stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar va yozma adabiyot munosabatiga doir bir qancha maqolalar, tadqiqotlar, monografiyalar yozilgan. Ularning har birida muayyan bir davr yoki ijodkor ilmiy qarashlar obykti sifatida olingan. Murakkab folklorizmlar tipologiyasi, stilizatsion folklorizmlar nazariyasiga doir izlanishlarni B.Sarimsoqov o‘zining “Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir” tadqiqoti bilan boshlab bergan. Olim folklor hamda yozma adabiyot munosabatini o‘z xarakter xususiyatiga ko‘ra ikkiga ajratilish kerakligini ta‘kidlagan: 1) folklor va yozma adabiyot o‘rtasidagi genetik (bevosita) aloqadorlik; 2) har ikkisinining bilvosita – folklorizmlar orqali aloqasi [Sarimsoqov, 1980].

B.Sarimsoqov folklorizmlarni oddiy va murakkab deya ikki turga ajratar ekan, o‘z navbatida har bir tur o‘z ichki qonuniyatlariga, tip va turlariga ega ekanligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, oddiy folklorizmlar yozma adabiyotda folklorga xos maqol, matal, yumuq iboralar, og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan ifoda hamda oborotlarning qo‘llanilishidan tarkib topadi. Murakkab folklorizmlar esa tabiati, asarda bajargan vazifasiga qarab uch turga ajratiladi:

1. Analitik folklorizmlar asarning badiiy to‘qimasi, uning yetakchi g‘oyasi bilan organik birikib ketaolmaydi. Asarga qistirilgan, uning asosiy g‘oyasiga aloqasi bo‘lmagan folklorga xos kichik hikoya, ertak, obraz, syujet yoki motiv analitik folklorizmni vujudga keltiradi.

2. Sintezlashgan folklorizmlar. Olimning fikricha, murakkab folklorizmlarning

bu turi asarning badiiy to‘qimasini, uning g‘oyaviy-tematik asoslarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Sintezlashgan folklorizmlar folklorga xos yetakchi g‘oyalarni sintezlab olish va asar mazmuniga singdirib yuborishdir, ya‘ni asarga boshdan-oyoq folklor ruhi singdirilgan bo‘ladi. Uni ilg‘ab olish tarix va xalq ijodiyotini, an‘analarini chuqur o‘rganishni talab etadi.

3. Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar. Adabiyotshunos murakkab folklorizmlarning ushbu turini yana ikki turga bo‘lib tasnif qiladi: 1) ijobiy xarakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan folklorizmlar. Bu tipdagi folklorizmlar asosan folklor materiallarining ham g‘oyaviy, ham mazmuniy jihatlariga to‘liq tayangan holda ularni yangi shaklda qaytadan ishlov berish tufayli yuzaga keladi. Masalan, H.Olimjon “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg”, Sobir Abdullaning “Tohir va Zuhra” asarlari; 2) salbiy xarakterdagi stilizatsiya asosida yuzaga kelgan folklorizmlar. Olim ushbu tur haqida fikr yuritir ekan, zamonaviy adabiyotda folklor an‘analari asosida yaratilgan asarlar folklorga xos tasvir, vosita va usullarning yangi voqelikni butun qirralarini aks ettirishga qodir emasligini ta‘kidlaydi [Sarimsoqov, 1980].

Demak, analitik va sintezlashgan folklorizmlarda ijodkor folklor materialidan aynan foydalansa, stilizatsion folklorizmda aynan takror emas, balki xalqona usul, xalqona uslubga tayanish, undan ilhomlanish ustuvorlik qiladi. Bunday usulda yaratilgan asarlar xalqona usulni, shaklni yodga solishi bilan xarakterlanadi.

Murakkab folklorizmlarni analitik, sintezlashgan va stilizatsion deya turlarga bo‘lib tasniflash, bu turlarni ichki qonuniyatlari asosida yana guruhlashtirish ehtiyojini vujudga keltirdi. Shu bois, I.Yormatov ham ustoz B.Sarimsoqov izidan borib folklorizmlar tipologiyasini yaratadi. Uning “Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari” nomli maqolasi aynan shu xususda. Olim oddiy va murakkab folklorizmlar haqida fikr yuritir ekan, B.Sarimsoqov tasnifiga tayanadi va oddiy folklorizmlar murakkab folklorizmlarga qaraganda aktivroq ekanligini ta‘kidlaydi va uni ikki turga ajratadi: 1) Asl oddiy folklorizmlar; 2) Qayta ishlangan oddiy folklorizmlar. Adabiyotshunos ushbu maqolasida murakkab folklorizmlarning analitik turinigina tahlilga tortadi [Yormatov, 1982].

I.Yormatov izlanishlarini davom ettirib sintezlashgan va stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar tasnifiga doir alohida-alohida maqolalar e‘lon qiladi. Uning “Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar” nomli maqolasi yuqoridagi maqolaning uzviy davomi hisoblanadi. Olim o‘z fikrlarni tahlillar orqali bayon qilar ekan, stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlarni murakkab folklorizmlarning keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri sifatida e‘tirof etadi. Uning fikricha, stilizatsiya jarayonida yozuvchi folklorshunoslik qonuniyatlariga qat‘iy amal qilishi, folklor materialining g‘oyaviy-kompozitsion butunligiga putur yetkazmasligi, uni o‘zi xohlagancha o‘zgartirmasdan ishlov berishi va folklorga xos rivoyaviy bayon uslubini saqlab qolishi lozim. Biroq bu talablar ijodiy o‘zlashtirishning janr erkinligiga ta‘sir qilmaydi. So‘z san‘atkor xalq yaratgan ertak, afsona va rivoyatlarni o‘rniga qarab istalgan janrda ifoda etishi mumkin. Ya‘ni, stilizatsion folklorizmda ijodkor faqat hikoyachi sifatida ko‘zga tashlanadi [Yormatov, 1984; 31]. Ammo L.Sharipovanning fikricha, o‘zlashtirish chog‘ida janr tanlash erkinligi va huquqi saqlanadi. Shuning uchun ijodkor o‘zi tanlagan xalq ertagi

suje-tini xohishiga qarab yo ertak, yo doston shaklida qayta ishlashi mumkin. Folklor materialini janrining o'zgarishi esa uning kompozitsion butunligi ham o'zgarishga olib keladi. Hatto, buning oqibatida an'anaviy janrni takrorlamaydigan yangi oraliq janr paydo bo'lishi kuzatiladi. Agar epik turdagi folklor materialiga dramatik asar sifatida ishlov berilsa, folklorga xos epik bayon uslubiga, albatta, putur yetadi. Olima I.Yormatovning bu boradagi nazariy fikri yozma adabiyotda mavjud misollar mohiyatiga to'la-to'kis mos kelmasligi, mavjud asarlardagi stilizatsiya holati juda rang-barangligi bois stilizatsiya xarakteridagi folklorizmni bu qadar chegaralash o'rinli emasligini ta'kidlaydi [Sharipova, 2011; 87]

I.Yormatov stilizatsion folklorizmlarni ikki turga bo'lib tasnif qiladi, ammo bu nisbiy bo'linish ekanligi va bu ikki atama ichki dialektik bog'lanish yoxud ayirmachiliklarni aniq anglata olmasligini qayd etadi:

**1. Progressiv stilizatsiya** xarakteridagi folklorizmlar yozuvchi tomonidan folklor motivlarini to'liq qayta ishlash hisobiga yuzaga keladi. Bu ishda avtor xalq og'zaki ijodiyoti mahsuliga birmuncha erkin yodashadi: uni mazmunan isloh qilish, qo'shimcha obrazlar kiritish imkoniga ega bo'ladi. Materialning tub mag'zi sintez qilib olinmay uning syujet va kompozitsion strukturasi mavjud holatda ijodiy qayta ishlanadi hamda mazmun va shakl birligiga qat'iy amal qilinadi. Negaki bu ikki turga ajratishning boshlang'ich nuqtasidir. Olim ushbu stilizatsiyaga misol tariqasida A.Oripovning "Sharq hikoyasi" nomli she'rini keltiradi.

**2. Regressiv stilizatsiya** yo'li bilan yaratilgan asarlarda yozuvchi asosiy e'tiborni folkloriy materialning shaklini to'la-to'kis o'zlashtirishga qaratadi, uning mazmunini yangilash, o'zidan biror fikr qo'shish maqsadini ko'zlamaydi. Ijodkor folklorga xos asar materialini shaklan kengaytirib, asar g'oyasini aynan saqlaydi, unga o'z g'oyasini singdirmaydi [Yormatov, 1982].

Stilizatsiya termini fanga kirib keldi, biroq keyingi 20-30 yil davomida hech bir tadqiqotda unga murojaat etilmadi. Uning o'rniga folklor va yozma adabiyot munosabati "shoir va xalq ijodi", "xalq an'analari", "folkloridan ta'sirlanish", "folkloridan ilhomlanish", "folklorizm" kabi umumiy atamalar orqali tahlil etildi.

Stilizatsiya istilohi aynan qo'llanilmasa-da, adabiyotshunos N.Sharopovning og'zaki lirika janrlariga murojaat etish tamoyillari haqidagi fikrlari mohiyatan stilizatsiyadir: "O'zbek she'riyatidagi janriy izlanishlar tamoyili eng avvalo ijodkorlarning xalq og'zaki ijodiga, undagi she'riy shakllarga murojaat etishlari bilan boshlangn... Bunday tamoyilning bosh sababi xalq lirigasiga mansub va shoirlar murojaat etgan janrlarning voqelikni badiiy aks ettirish imkoniyatlarining kengligi, ifoda vosita usullarining boyligi bilan bog'liqdir" [Sharopova, 1998]. Olima xalq she'riy shakllariga murojaatni tom ma'nodagi ijobiy hodisa deya e'tirof etib, bu tamoyilni S.Zunnunova, A.Qosim, T.Sulaymon, E.Vohidov, H.Xudoyberdiyeva, E.Shukur, U.Azim, M.Kenjabe-k kabi qator shoirlar davom ettirayotganligini ta'kidlaydi: "Usmon Azim va Mirzo Kenjabe-k xalq baxshilari kuylagan epik she'r shaklga ergashib, uning ifoda va tasvir imkoniyatlaridan ijodiy foydalanib, zamondoshlarimiz qalb tug'yonlarini ta'sirliroq ifodalashga erishdilar" [Sharopova, 1998].

2011-yilga kelib stilizatsion tahlilga e'tibor qayta uyg'ondi. O'zbek adabiyotida folklor va zamonaviy she'riyat o'rtasidagi aloqani chuqur tadqiq qilgan olimlardan biri L.Sharipova bo'lib, uning "XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizm" (2011), "She'riyat va folklor (XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyati misolida)" (2019) nomli monografiyalari ushbu soha rivojiga qo'shilgan muhim hissalaridan biri bo'ldi. Ushbu asarlar ilgari bu yo'nalishda faoliyat olib borgan B.Sarimsoqov, I.Yormatov, O.Sobirov, G'.Mo'minov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari bilan uzviy bog'liqlikda yaratilgan bo'lib, ularning qarashlarini izchil davom ettiradi. L.Sharipova folklorizmlar tipologiyasi va tasnifini o'rganishda rus olimi M.K.Azadovskiyning ilmiy va badiiy folklorizm haqidagi tasnifini davom ettiradi va unga o'z munosabatini bildiradi.

Olima stilizatsion folklorizmlar folklor janrlari (doston, ertak, afsona, rivoyat, qo'shiq, yig'i, yo'qlov, alla kabilar)ning asosiy motivlari va badiiy shaklini, ifoda uslubini hamda ularga aloqador yuksak g'oyaviy motivlarni, an'anaviy epik obrazlarni, ko'tarinki ritmni ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi deya ta'kidlaydi va stilizatsion folklorizmlarni shu asosda to'rt turga bo'ladi: 1. Janr stilizatsiyasi. 2. Motiv stilizatsiyasi. 3. Obraz stilizatsiyasi. 4. Ritm stilizatsiyasi.

Olima dastlabki tadqiqotida folklorizmlarni tipologik jihatdan tahlil qilish bilan birga o'zigacha bo'lgan tadqiqotlarni tanqidiy tahlilga tortadi va o'ziga xos tasnif tizimini taklif etadi va folklorizmlarni to'rt asosiy jihatga ko'ra tasniflaydi:

#### **1. Qo'llanish davriga ko'ra:**

– mumtoz folklorizm – an'anaviy xalq og'zaki ijodi elementlarini o'zida aks ettiruvchi turlar;

– zamonaviy folklorizm – zamonaviy adabiyotda yangicha talqin qilinadigan folklor motivlari va shakllari.

#### **2. Qo'llanish o'rniga ko'ra:**

– badiiy folklorizm – badiiy asarlarda qo'llaniladigan stilizatsion va badiiy usullar;

– publitsistik folklorizm – publitsistika va maqolalarda qayd etiladigan folklor unsurlari.

#### **3. Folklorizmlarning sifatiga ko'ra:**

– oddiy folklorizm – folklor elementlarining soddagina takrorlanishi;

– murakkab folklorizm – bir nechta folklor unsurlarining uyg'unlashib, murakkab badiiy tizim hosil qilishi.

#### **4. Qo'llanish yo'nalishi va vazifasiga ko'ra:**

– uslubiy-nutqiy folklorizm – nutq va uslubda aks etadigan folklor unsurlari;

– kompozitsion folklorizm – asarning tuzilishiga ta'sir ko'rsatadigan folklor shakllari;

– ijtimoiy-etnografik folklorizm – xalq hayoti, urf-odatlarini va an'alarini aks ettiruvchi unsurlar.

Ushbu tasnifning oxirgi qismi A.A. Gorelovning ilmiy qarashlariga asoslangan bo'lib, L.Sharipovaning o'ziga xos yondashuvi va tizimlashtirish qobiliyatini namoyon etadi [Sharipova, 2011; 35].

Olima yozma adabiyotda dastlab doston, maqol, topishmoq, yo‘qlov, yig‘i, keyinchalik yor-yor, alla kabi folklor janrlari stilizatsiya qilingan deb hisoblaydi va doston janri stilizatsiyasining debochasi deya “Qutadg‘u bilig” va “Hibat-ul haqoyiq” asarlarini e‘tirof etadi [Sharipova, 2011; 88].

L.Sharipovaning “She‘riyat va folklor. XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek she‘riyati misolida” nomli monografik tadqiqotida folklorizmlar muammosi tizimli tarzda o‘rganilib, mazkur hodisaning nazariy-metodologik asoslari hamda poetik vazifasi ilmiy jihatdan atroflicha tahlil qilinadi: “Dunyo adabiyoti asrlar davomida xalq og‘zaki poetik ijodidan bahramand bo‘lib keldi. Jahon, jumladan, o‘zbek yozma adabiyoti folkloridan janr o‘zlashtirdi, folklorga mansub sujetlardan foydalanib asarlar yaratdi. Yozma she‘riyat vazn, band, qofiya, badiiy tasvir vositalarini qo‘llashni, hajvni, avvalo, folkloridan o‘rgandi. Ammo o‘rganganlarini aynan takrorlamadi, balki barchasini o‘z qonuniyatlari asosida sintezlashtirdi, ijodiy rivojlantirdi” [Sharipova, 2019; 8-9].

Olima asosiy e‘tiborini janr va obraz stilizatsiyasiga qaratadi. Ritm va motiv stilizatsiyasi alohida fasllarda tahlilga tortilmagan bo‘lsa-da, berilgan misollar orqali izohlab ketilgan. Monografiya birinchi bobining ikkinchi fasli “*Murakkab folklorizmning she‘riyat badiiyatiga ta‘siri*” deb nomlangan bo‘lib, unda stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar poetik tafakkurning yuksalishiga xizmat qiluvchi muhim badiiy-estetik hodisa sifatida talqin qilinadi. Uchinchi faslda shoirlar uslubi xususida fikrlar bayon etilgan. Tadqiqotda “Baxshiyona” yaratgan shoirlar va ularning ifoda tarziga xos uslubiy rang-baranglik tahlil etilgan. Xususan, Usmon Azim uslubi haqida shunday yoziladi: “Folklorizm shoir uslubining bir qirrasini tashkil etadi. Uslubida folklor ta‘siri bo‘rtib turgan ikkinchi guruh vakillaridan biri Usmon Azim oddiy folklorizmdan ham, murakkab folklorizmdan ham birday foydalana olgani bilan boshqa ijodkorlardan farqlanadi. U xalq og‘zaki ijodi ta‘sirida baxshiyonalar yaratgan shoirdir” [Sharipova, 2019; 56].

Monografiyaning ikkinchi bobi janr stilizatsiyasi xususida bo‘lib, olimo “adabiy alla”, “adabiy yor-yor”, “adabiy topishmoq” kabi yangi topilma – atamalarni ilk bor qo‘lladi. Ushbu bobda ham Usmon Azim va Yo‘ldosh Eshbek ijodidan ayrim namunalar tahlilga tortiladi: “XX asrning 80-yillari oxirida adabiy allalarda uxlashga emas, uyg‘onishga undash motivi kuchaydi. Bu qaram xalq shoirlarining she‘riy isyoni edi. Shoir Usmon Azim baxshiyonalaridan birida “uyg‘on” deb yozar ekan, “U paytlarda onalar bolasini uxlasin debmas, uyg‘onsin”, – deb ham alla aytishar ekanlar”, – deyish orqali hukmron mafkura tazyiqidan o‘zini himoya qila oldi. Yo‘ldosh Eshbek “O‘g‘lim” she‘rida “Uch og‘ayni botirlar” motividan foydalanib, ota bo‘lib nasixat qiladi, alla aytadi... Bunday yozma allalar folkloridagi otalar aytgan allaning yozma adbiyotga ko‘chishidir” [Sharipova, 2019; 56].

Monografiyaning uchinchi bobi xalqona mif va afsona motivlarida uchrovchi mifologizmlar tasnifiga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda suv obrazi va uning evrilish motivi: yomg‘ir, sel, daryo, ko‘l, oyna, ko‘zgu obrazlari orqali ochib berilgan. Usmon Azimning “O‘rdadagi ko‘prik ustida”, Yo‘ldosh Eshbekning “Bahor osmonlari” nomli she‘rlaridan mavzu mazmunini yoritishda foydalanilgan. Bundan tashqari

tadqiqotdan olov, o'simliklar, daraxt, gul, Kenja botir va ot obrazlarining og'zaki va yozma adabiyotdagi qiyosiy tahlili ham o'rin olgan.

Olima Usmon Azimning "Baxshiyona" usulida yozilgan balladalarini tahlil qilgan ekan, butun bir faslni ushbu turkum tasnifiga bag'ishlaydi. "Usmon Azimning "Balladalar" nomi ostidagi voqeaband she'rlari ham folklorizmning barcha turlarini o'zida mujassam etgani bilan ko'zga tashlanadi. Xalq og'zaki ijodidan oziqlanib yuzaga kelgan bu she'rlar lirik qahramonlar ruhiyatidagi ma'naviy jang-u jadal bois "ballada" deyilgan bo'lsa ehtimol. Har bir ballada alohida sujetga ega, ayni dama bir obraz, bir maqsad atrofida birlasha olgani sabab ularni turkum deyish mumkin. She'rlarni folklorga xos motiv va obrazlar ishtirokida ilgari surilgan g'oya erkinligini qo'msash tuyg'usi birlashtirib turibdi" [Sharipova, 2019; 173].

Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, jahon adabiyoti, xususan, o'zbek yozma adabiyoti asrlar davomida xalq og'zaki poetik ijodining badiiy-estetik tajribasidan uzluksiz bahramand bo'lib kelgan. Natijada yozma adabiyot folkloridan nafaqat muayyan janr shakllarini o'zlashtirgan, balki folklorga xos sujet-kompozitsion modellardan, obrazlar tizimidan va an'anaviy motivlardan samarali foydalanish orqali yangi tipdagi badiiy asarlarni vujudga keltirgan.

Tadqiqotlarni kuzatar ekanmiz, L.Sharipova bilan bir vaqtda stilizatsiya hodisasiga D.Xoliqovaning "Hozirgi o'zbek she'riyatida folklor an'analari va badiiy mahorat" mavzusida yozilgan nomzodlik ishida ham e'tibor qaratiladi. Dissertatsiyada folklorizmlar, uning tipologiyasi, stilizatsiya jarayoni haqida B.Sarimsoqov, I.Yormatov, L.Sharipova olib borgan izlanishlardan ma'lumotlar, iqtiboslar beriladi, biroq tahlil jarayonida mifologik obrazlar, motivlar folklor an'anasi deya umumiy tavsiflanadi, xolos. Ushbu dissertatsiyada Xalima Xudoyberdiyeva, Omon Matjon, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Sirojiddin Sayid kabi bir qator shoirlarning xalqona ruhda yozilgan she'rlari tahlilga tortilgan, folklor materillaridan foydalanish mahorati tadqiq etilgan. Tadqiqotda Usmon Azimning "Baxshiyona" turkumiga kiruvchi ballada obrazlarining folkloriy asoslari tadqiq etishga harakat qilingan, shoirning qahramonlariga nom tanlashdagi mahorati e'tirof etilgan: "Usmon Azim xalq ijodi janrlari, obrazlari va xalq tilidan unumli foydalanib, xalqona kuy va ohanglarga monand xayqiriq va jo'shqin lirika namunalari yaratdi" [Xoliqova, 2011; 156].

Stilizatsiya hodisasi keng qamrovli tushunchadir. U nafaqat kattalar adabiyotida balki bolalar adabiyotiga xos badiiy namunalarda ham o'z ifodasini topdi. Bu borada ham qator tadqiqotlar olib borildi. Xususan, R.Rajabovanning "*O'zbek bolalar adabiyotida folklor janrlari stilizatsiyasi*" nomli dissertatsiyasi stilizatsion folklorizmlar tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi stilizatsiya hodisasi haqida chuqur to'xtalib o'tirmaydi, ko'proq misollar orqali izohlashga urunadi. Ilmiy ishda bolalar adabiyotiga xos janrlardan topishmoq, tez aytish va ertak janri stilizatsiyasi xususida so'z boradi. Muallifning fikricha, "Kattalar adabiyotidan ko'ra bolalar adabiyotida folklor janrlari, obraz va motivlariga murojaat ko'proq kuzatiladi. Xususan, bolalar folkloriga aloqador alla, erkalama, hukmlagich, shuningdek, ham kattalar, ham bolalar folkloriga tegishli ertak, topishmoq, tez aytish

singari janrlarning shakli, ifoda uslubi, obraz va motivlaariga qayta ishlov berilishi natijasida stilizatsion folklorizm ko‘rinishlari paydo bo‘ladi” [Rajabova, 2020; 19].

Darhaqiqat, bolalar adabiyotida xalq ijodidan ta’sirlanish yuqori. Xalqona ertag-u afsonalar, alla-yu topishmoqlar bugungi bolalar adabiyotining asosini tashkil etadi.

Xalq ijodining mumtoz adabiyotga ta’siri masalasi ham alohida tadqiq talab etuvchi jarayonlardan biri. M.Rajabovanning *“Alisher Navoiy ijodida folklor janr; motiv va obrazlari stilizatsiyasi”* nomli doktorlik dissertatsiyasi stilizatsiya hodisasi va mumtoz adabiyot munosabatiga doir dastlabki tadqiqotlardandir. Olima Alisher Navoiy va xalq ijodini qiyosiy tahlil etar ekan, shoir ijodida uchrovchi analitik, sintezlashgan va stilizatsion folklorizmlar ko‘rinishlarini alohida-alohida fasllarda tadqiq etadi. Dissertatsiyada janr stilizatsiyasi ikki faslda: marsiya va navhalar; parameologik janrlar stilizatsiyasi sifatida tahlil etiladi. Alisher Navoiy ijodidagi epik motivlar stilizatsiyasi esa to‘rt faslda bayon etiladi. Ushbu bob o‘z ichiga mifologik jang motivi; telbalik; farzandsizlik; tush kabi motivlarni qamrab olgan. Navoiy asarlari va xalqona obrazlar stilizatsiyasiga bag‘ishlangan bo‘limda esa mifologik va tarixiy obrazlar stilizatsiyasi va genizisi ochib berilgan. Tadqiqotda stilizatsiya terminiga shunday izoh beriladi: “Stilizatsiya” so‘zi uslubga tushish ma’nosini bildirgani sababli tanlangan folklor janri namunasining shakli, g‘oyasi va mazmuni, ifoda uslubi, obraz va motivlari, til xususiyatlariga ba’zan to‘liq, ba’zan qisman ergashib, ijodiy tayangan holda yangi shaklga solib yaratilgan adabiy janr sifatida qabul qilinadi” [Rajabova, 2021; 86]. Shuningdek xalq ijodiga xos podshohlarning yor tanlash, taxtga chiqish, valiahdlik, safar motivlari ham mumtoz manbalarda stilizatsiya qilinganligini kuzatishimiz mumkin.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti xalq ijodiga xos obraz motiv, ritm va janrni o‘zlashtirib, nafaqat nazmda, balki nasriy asarlarda, xususan dramalarda ham aks ettirdi. Stilizatsiyaning dramaturgiyadagi o‘rni N.Tursunovanning “Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasida folklor stilizatsiyasi” nomli (PhD) dissertatsiyasida tahlil etildi. Ushbu tadqiqot dramalardagi stilizatsiyani ochib berishdagi dastlabki tadqiqotlardan sanaladi. Dissertatsiyada bir qancha dramaturglar qatori Usmon Azimning dramatik asarlari ham tadqiqot manbasi sifatida tanlangan. Ijodkorning “Tohir va Zuhra”, “Alpomish” dramalari xalq ijodida uchrovchi shu nomdagi dotonlar bilan qiyosiy tahlil etilgan. Stilizatsiya hodisasi mohiyati, terminologiyasiga o‘rin ajratilmagan. Fasllar tarkibida qisqa izohlar bilan kifoyalanilgan [Tursunova, 2020; 140]. Darhaqiqat, baxshichilik, dostonchilik an’analari keskin kamayib borayotgan zamonda yosh avlodga xalqning afsonaviy qahramonlari mana shu kabi dramatik asarlar orqali tanitilmoqda.

Yozma adabiyotda folkloriga xos doston, ertak, rivoyat qahramonlari bilan birgalikda, afsonaviy mifologik obrazlar o‘zlashuvi ham kuzatiladi. S.Nurullayevaning “Zamonaviy o‘zbek she’riyatida mifologik obrazlar stilizatsiyasi va metoforizatsiyasi” nomli dissertatsiyasi stilizatsiya hodisasini mifopoetik jarayon bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganilishi bilan e’tiborga loyiq. Tadqiqotda stilizatsiya xalq og‘zaki ijodiga xos an’anaviy mifologik obrazlarni davr ruhiga mos ravishda

qayta talqin qilish jarayoni sifatida izohlanadi. Muallif stilizatsiyani shunchaki obraz o'zlashuvi emas, balki mazmuniy yangilanish, semantik ko'chish va ramzlashuv bilan bog'liq murakkab poetik hodisa sifatida talqin qiladi: "O'zbek zamonaviy she'riyatidagi mifologik obrazlar stilizatsiyasi va metaforizatsiyasiga folklorizmlar sifatida qaraladi. Ulardan ko'pincha davr voqeliklari, davr kishilari, yangi turmush predmetlarini tasvirlash uchun antropomorfik (inson qiyofasidagi: Xizr, pari, farishta, malak, hur, yalmog'iz kabi), zoomorfik (hayvon qiyofasidagi: ajdar singari), qush ko'rinishidagi (Humo, Semurg', Anqo, Samandar kabi) obraz tiplaridan foydalanib kelinmoqda" [Nurullayeva, 2022; 21].

Dissertatsiyaning "Mifologik obrazlar stilizatsiyasi va metaforizatsiyasining an'anaviyligi" deb nomlangan ilk bobining dastlabki faslida metaforizatsiya va stilizatsiya hodisalarining adabiyotshunoslikda o'rganilish masalasi yoritilgan. Biroq stilizatsiya hodisasi tadqiqiga bag'ishlangan ishlar tahlilga jalb etilmagan.

Obraz stilizatsiyasini tahlil etishda L.Sharipovning tasnifiga (epik obrazlar stilizatsiyasi, ramziy obrazlar stilizatsiyasi, mifologik obrazlar stilizatsiyasi, dramatik obrazlar stilizatsiyasi) tayanilgan. Tadqiqotda ajdar, dev, yalmog'iz, ajina, alvasti, pari, humo, semurg', anqo, samandar kabi mifologik obrazlar she'riy misollar asosida tahlil qilingan.

Shuningdek, variatsiya va stilizatsiya hodisalari qiyosiy jihatdan ko'rib chiqilib, obraz stilizatsiyasi bir necha variativ ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkinligi asoslangan. Folklorga xos dastlabki mazmundan chekinish, obrazning yangi g'oyaviy yuklama kasb etishi she'riy tahlillar orqali dalillangan. Tadqiqotchi o'z fikrlarini quyidagicha xulosalaydi: "Metaforizatsiya va stilizatsiyadan foydalanish nutqni bezash uchungina bo'lmay, sof pragmatik ahamiyatga ham ega. Xalq og'zaki ijodiga xos an'anaviy mifologik obrazlar yangicha uslubda, davr ruhiga mos qayta ishlanishi ularni stilizatsiya qilish hisoblanadi. Bu har ikkala hodisaning nominatsiya jarayoni milliy urf-odatlariga, milliy til imkoniyatlariga bog'liq holda kechadi. Metaforizmlar, stilizatsion folklorizmlar mnemonik (eslab qolish), tushuntirish, kodlash (yashirish, pardaga o'rash), axloqiy (hissiy ta'sir ko'rsatish), avtosuggestiv (so'zlovchi, ya'ni ijodkorning o'zi ta'sirlanishi) kabi vazifalarni bajarib keladi" [Nurullayeva, 2022; 22]. Qolaversa, bu kabi obrazlarning she'riyatda aks etishi she'rxonga xalqning qadim tarixi, o'tmishi, afsonaviy obraazlar tizimi bilan tanishish imkonini beradi.

Shunday tadqiqotlar borki, ularda stilizatsiya hodisasi tilga olinmaydi, biroq tahlilga tortilgan manbalar stilizatsiyaning tipologik ko'rinishlarini ifodalaydi. F.Buriyevaning "Hozirgi o'zbek she'riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi (Usmon Azim va Xurshid Davron ijodi misolida)" [Buriyeva, 2023; 141] mavzusidagi dissertatsiyasida ham yozma va og'zaki adabiyotning shaklan va janriy almashuvlari tahlil etiladi. Biroq ular stilizatsiya asosida yaratilganligi izohlanmaydi. Usmon Azimning she'rlaridagi janrlar va poetik shakllar xilma-xilligi o'rganiladi. Bundan tashqari she'riyatda folklorga xos ritmning aks etishi U.Abdullayevaning "Yangi o'zbek she'riyatida ijroviy lirika poetikasi (Abdulla Oripov va Usmon Azim ijodi misolida)" mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasida tahlil etildi. Ushbu dissetatsiyada ham Usmon Azim ijodiga murojaat etiladi. Ushbu tadqiqotda stilizatsiya hodisasi haqida

fikr bormagan bo'lsa-da, ular keltirgan misollar stilizatsiya hodisasiga aloqador. Tadqiqotchi "Baxshiyona"ni tahlilga torta turib shunday yozadi: "Usmon Azim ijodidagi "Baxshiyona" turkum she'rlari folklor va ijroviy lirika sintezining yorqin namunasi. Ma'lumki, XX asrning 80-yillarida mudroq xalqni uyg'otish, ma'naviy erkini anglatish, xalq dardini ifodalash uchun adabiyotdan, asosan, she'riyatdan foydalanildi. Shoirlar o'z fikrlari qudratini, ta'sir darajasini oshirish uchun folklordan foydalandilar. Usmon Azimning "Baxshiyona"si ana shunday mazmun va maqsadda yuzaga keldi" [Abdullayeva, 2022; 23].

Zamonaviy adabiyotshunoslikda stilizatsiya hodisasi diffuziya, transformatsiya, modifikatsiya jarayonlari bilan qiyosan tahlil etildi. Xususan, Q.Mamiraliyev o'zining "Istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi" nomli dissertatsiyasida adabiyotshunosligimizda uchrovchi modifikatsiya, transformatsiya, diffuziya, dekonomizatsiya, folklorizmga xos sintezlashish va stilizatsiya hodisalari haqida ma'lumot berar ekan, sintezlashuv va stilizatsiya jarayonini badiiy modifikatsiya hodisasining bir ko'rinishi degan to'xtamga keladi.

Tadqiqotchi janr stilizatsiyasiga oid L.Sharipovanning fikrlari hamda alla, yor-yor, latifa kabi janrlarni adabiy alla, adabiy yor-yor, adabiy latifa deb nomlash takliflariga tayangan holda shunday yozadi: "She'riyatimizda uchraydigan alla, yor-yor va latifa mazmunidagi she'rlar folklorning bir qator janrlari asosida yuzaga kelgan va biz bu hodisani badiiy modifikatsiyaning aniq ko'rinishi desak bo'ladi. Chunki, olimaning o'zi bularni adabiy alla, adabiy yor-yor, adabiy latifa deb qayd etib o'tadi. Folklordan she'riyatga ko'chgan bunday janrlar ijodkor individualligi va estetik ideali bilan yanada boshqacha ahamiyat kasb etadi" [Mamiraliyev, 2024; 79]. Tahlillardan ayonlashganidek, stilizatsiya va modifikatsiya hodisasi munozarali masaladir.

## MUNOZARA

Xalq og'zaki ijodiga xos janrlarning ijodkorlar tomonidan o'zlashtirilib, yozma adabiyotga olib kirilishi janr stilizatsiyasi hodisasini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, janrlarning o'zaro almashuvi og'zaki va yozma adabiyot taraqqiyotiga xos bo'lgan uzviy va tarixiy jarayon. Ya'ni, xalq og'zaki ijodi ham, yozma adabiyot ham bir-biridan mustaqil holda emas, balki o'zaro ta'sir va almashinuv asosida rivojlanib kelgan. Shu jarayonda folklorga mansub ertak, doston, naql, afsona, rivoyat, qo'shiq, alla, yor-yor, o'lan, lapar, aytishuv, yig'i, yo'qlov, marsiya, topishmoq, tez aytish, hukmlagich, erkalama, askiya, latifa, lof kabi janrlar yozma adabiyotda stilizatsiya qilingan holda badiiy o'zlashtirilgan.

Adabiy alla, adabiy yor-yor ritm va janr stilizatsiyaning uyg'un holda ifodalanishidir. Biz Q.Mamiraliyevning fikrlariga biroz aniqlik kiritishni joiz topdik. Bizningcha, har qanday alla yoki yor-yor janri stilizatsiyasini modifikatsiya deyish munozarali. Chunonchi, har bir modifikatsiya stilizatsiyani o'z ichiga olishi mumkin, lekin har bir stilizatsiya modifikatsiya bo'la olmaydi.

Dissertatsiyada modifikatsiyaga shunday ta'rif beriladi: "Lug'aviy ma'nosiga ko'ra, modifikatsiya – ko'rinish, turlanish, shaklini o'zgartirish, o'zgargan shakl, holat degan ma'noni bildiradi. "Поэтический словарь Квятковского" kitobida

modifikatsiya atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Modifikatsiya – (qadimgi lotin modifikatio – qaror topgan mezon-o‘lchovlar, lotincha modus – mezon, ko‘rinish, obraz, ko‘chma xususiyat va lotincha fasio – qilmoq, amalga oshirmoq), qayta barpo etish, nimaningdir yangi xususiyat kasb etishi bilan shakl o‘zgartirilishidir. Texnikada esa modifikatsiya tushunchasining ostida yangi texnologiya yoki ma’lum bir qurilmaning yangi modellari paydo bo‘lishi tushuniladi. Masalan, avtomobillar modifikatsiyasi” [Mamiraliyev, 2024; 32]. Ta’kidlanganidek, modifikatsiya tushunchasi lug‘aviy va nazariy manbalarga tayangan holda “shakl o‘zgarishi”, “qayta barpo etish”, “yangi xususiyat kasb etish” sifatida izohlanadi. Bu ta’rifdan kelib chiqilsa, modifikatsiya hodisasi quyidagi belgilarni talab qiladi:

- shakily – strukturaviy o‘zgarish;
- vazifaviy – funkisonal yangilanish;
- janrning tipologik sifat jihatdan o‘zgarishi.

Biroq stilizatsiya tushunchasi adabiyot nazariyasida, odatda, boshqa mazmunga ega. Janr stilizatsiyasi – folklorga xos ifoda shaklini, ohang, ritm, obraz va kompozitsion tuzilishini takrorlash, lekin janr modelini tubdan o‘zgartirish emas. Demak, nazariy jihatdan har bir modifikatsiya stilizatsiyani o‘z ichiga olishi mumkin, ammo har bir stilizatsiya modifikatsiya emas.

L.Sharipovanning “adabiy alla”, “adabiy yor-yor” degan atamasi shuni ko‘rsatadiki, folklor janri yozma adabiyotga ko‘chadi, lekin u endi folklor emas – yozma shaklga ega bo‘lgan badiiy ifodaga aylanadi. Ya’ni, olimaning yozma shakli degan uzun ifodani qisqagina “adabiy alla” deb nomladi, xolos.

Bu yerda savol tug‘iladi:

- Janr strukturasi o‘zgardimi?
- Yangi poetik mexanizm paydo bo‘ldimi?
- Yoki faqat xalqona ohang stilizatsiya qilindimi?

Dissertatsiyada adabiy allalar xususida so‘z borar ekan, Usmon Azim, G.Asqarova, M.Yusuf kabi shoirlar yaratgan allalar tahlilga tortiladi. Allalarda mazmunan yangilanish, shaklan o‘zgarish modifikatsiyani vujudga keltirgan deb qaraladi. I.Yormatov ta’rifiga qaralsa, stilizatsiya jarayoni ikki xil kechadi: progressive va regressiv. Progressiv stilizatsiya erkin yondashuv demakdir. Ya’ni ijodkor folklor materiali shakli, mazmunini erkin almashtirishi, yangi g‘oya singdirishi mumkin. Masalan, allada uxlashga emas, balki uyg‘onishga davat mazmunini ifodalashi mumkin. Regressiv stilizatsiya esa ayni, shakl, ohang, usulni o‘zlashtirish. Alla, yor-yor janrlari stilizatsiyasi jarayonida shoirlar folklor janrlaridan foydalanar ekan, yangi janr yoki shakl yaratmaydi, balki xalqona janrning ohang va shakliga o‘xshatib asar yaratadi. Agar folklor janri yozma adabiyot sharoitida yangi funksional maqom olsa – bu modifikatsiya. Ya’ni shaklan o‘zgarishga uchrasa shunday talqin qilamiz. Modifikatsiya ta’rifidan kelib chiqsak, folklorizmlarning sintezlashuv jarayoni modifikatsiyaga uyg‘un, lekin har doim ham aynan emas.

Tadqiqotchi Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumining janriy tabiati haqida ham fikr yuritib shunday deydi: “Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida janrlar, asosan, qorishiq holda uchraydi, hamma shakl ham janr maqomini olavermaydi.

Baxshiyona – folklor va yozma she’riyat munosabatlari orqali yuzaga kelgan she’riy shakl” [Mamiraliyev, 2024; 83]. Bu yerda janr diffuziyasi, poetik qatlamlarning qorishuvi, yangi shaklning yuzaga kelishi kuzatiladi. Bunday misolda modifikatsiya tushunchasini qo‘llash nisbatan asosliroq, chunki folklor poetikasi yozma lirika bilan sintezlashib yangi shakl hosil qildi.

Dissertatsiyaning ushbu faslida bir qancha shoirlar qatori Yo‘ldosh Eshbek ijodiga ham to‘xtalib o‘tiladi: “Ijodi xalqonalikka yo‘g‘rilgan ijodkor Yo‘ldosh Eshbek ijodida ham xalq og‘zaki ijodi namunlarining belgilarini ko‘plab uchraydi. Shoir qator she’rlarida xalq dostonlari qahramonlarini o‘z she’rlarida ham asosiy obraz sifatida keltiradi. Bunga Kuntug‘mish, Alpomish, Go‘ro‘g‘li kabi obrazlarni misol qilib keltirishimiz mumkin” [Mamiraliyev, 2024; 85]. Bundan tashqari, shoirning “Qo‘sh hayda” deb boshlanuvchi she’ri tahlilga tortilib, mehnat qo‘shiqlari turkumiga kirishi va bu ham modifikatsiya jarayoni ekanligi ta’kidlanadi: “She’rning ohangi ham aynan mehnat qo‘shiqlariga hamohang tarzda ifodalangan. Qo‘sh qo‘shish bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlarining yozma she’riyatimizga o‘tishini badiiy modifikatsiyaning ayni ko‘rinishi desak, xato bo‘lmaydi” [Mamiraliyev, 2024; 85]. Bizningcha, xalqona ritm o‘zlashuvi modifikatsiya emas, ritmning stilizatsiyalashgan ko‘rinishidir. Xalqona sodda va o‘ynoqi to‘rt bandlik shaklda yozilgan ushbu she’rda modifikatsiya hodisasi kuzatilmaydi:

*Qo‘sh hayda-yu, qo‘sh hayda.*

*Haydamasang non qayda.*

*Irodangni qattiq qil,*

*Lekin yerni bo‘sh hayda [Yo‘ldosh, 1987; 72].*

Shu bois stilizatsiya va modifikatsiyani aynanlashtirish metodologik jihatdan bahsli masala. Agar modifikatsiya strukturaviy yangilanishni talab qilsa, stilizatsiya stilistik o‘xshatish va poetik shaklni qayta jonlantirish bilan cheklanadi. Demak, folklor janrlarining yozma she’riyatda qo‘llanishi har doim ham modifikatsiya sifatida baholanmasligi kerak, u ayrim hollarda stilizatsiya doirasida qoladi.

## **XULOSA**

O‘zbek adabiyotshunosligida stilizatsiyalashgan folklorizmlar masalasi XX asrning 70–80-yillaridan boshlab tizimli o‘rganila boshlagan. B.Sarimsoqov, I.Yormatov va L.Sharipova tadqiqotlari o‘zbek adabiyotshunosligida ushbu ilmiy yo‘nalishning nazariy asoslarini yaratdi deyish mumkin. Stilizatsion folklorizmlarni janr, motiv, obraz va ritm deya turlarga bo‘lib tasniflash 2010-2011-yillardan boshlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek adabiyotshunosligida folklorizmlar tipologiyasi muammosi dastlab B.Sarimsoqov tomonidan ilmiy asoslandi va nazariy shakllantirilgan. Olim folklorizmlarni oddiy va murakkab turlarga ajratib, stilizatsiyani murakkab folklorizmning alohida ko‘rinishi sifatida e’tirof etadi.

I.Yormatov stilizatsion folklorizmlarni progressiv va regressiv turlarga ajratadi. Progressiv stilizatsiyada folklor materiali mazmunan yangilanadi, regressiv stilizatsiyada esa shakliy o‘xshatish ustuvor bo‘ladi.

L.Sharipova folklorizmlarni qo‘llanish davri, o‘rni, sifati va vazifasiga ko‘ra

to'rt jihatdan tasniflab, stilizatsiya jarayonining poetik mexanizmlarini yanada aniqlashtirdi. Uning tadqiqotlarida motiv, ritm, obraz va janr stilizatsiyasi alohida tur sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda stilizatsiya hodisasi mifologik obrazlar, dramaturgiya va bolalar adabiyoti misolida ham o'rganilmoqda. Biroq ayrim tadqiqotlarda stilizatsiya va modifikatsiya tushunchalarining aynanlashtirilishi metodologik bahsli masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy izlanishlarda stilizatsiya poetik sintez, mifologizmlar va janr bilan bog'liq holda talqin qilinmoqda. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, stilizatsiya va modifikatsiya hodisalarini farqlash zarur. Har bir modifikatsiya stilizatsiyani o'z ichiga olishi mumkin, ammo har bir stilizatsiya modifikatsiya emas.

Stilizatsion folklorizmlar yozma adabiyotning milliy poetik asoslarini mustahkamlovchi, xalqona ruhni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtiruvchi muhim badiiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Stilizatsion folklorizmlar shoir mahoratini, uning xalq ijodi bilimdoni ekanligini belgilovchi muhim mezon desak yanglishmagan bo'lamiz. Ijodkor xalq og'zaki ijodiga mansub janr, motiv, ohang yoki obrazni o'z usulida, yangicha qayta yaratar ekan u nafaqat yozma adabiyot rivojiga, balki og'zaki adabiyot umrboqiyiligiga ham o'z hissasini qo'shadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, U. (2023). Yangi o'zbek she'riyatida ijroviy lirika poetikasi (Abdulla Oripov va Usmon Azim ijodi misolida). *Filol. fan. fals. dok. diss.* Qarshi: Qarshi davlat universiteti.
2. Atajanov, S. (2021). Erkin Samandarning folklorizmlardan foydalanishdagi mahorati. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Urganch: Urganch davlat universiteti.
3. Baxtin, M.M. (1972). *Problemi poetiki Dostoevskogo*. Moskva: Khudozhestvennaya literatura.
4. Buriyeva, F. (2023). Hozirgi o'zbek she'riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi (Usmon Azim va Xurshid Davron ijodi misolida). *Filol. fan. fals. dok. diss.* Samarqand: Samarqand davlat pedagogika instituti.
5. Hamdam, U. (2012). *Yangi o'zbek she'riyati*. Toshkent: "Adib" nashriyoti.
6. Hamdam, U. (2017). *Yangilanish ehtiyoji*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
7. Ismoil, I., & Shermurod, T. (2011). *Usmon Azim ijodiyoti*. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti.
8. Jumaboyeva, J. (2000). XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
9. Jumaboyev, J. (1999). Ko'ksimni ochaman. *Yoshlik*, 3, 48.
10. Mamatova, A. (2000). O'zbek adabiyotida sarbast she'ning shakllanishi va uning badiiy-estetik xususiyatlari. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
11. Mamiraliyev Q. (2024). Istiqloq davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
12. Mirzayeva, D. (1994). Hozirgi o'zbek lirik she'riyatida badiiy tafsil. *Filol. fan. nomz. diss. avtoref.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
13. Najimova X. (2025) Stilizatsiyalashgan folklorizmlar mohiyati, adabiy-estetik vazifasi. *Filologiya va Pedagogika*, 13(17).
14. Nurillaeva S. (2022). Zamonaviy o'zbek she'riyatida mifologik obrazlar stilizatsiyasi va metaforizatsiyasi. *Filol. fan. nomz. diss. avtoref.* Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
15. Qurbonboyev, I. (2005). 90-yillar o'zbek she'riyatida obrazlilik. *Filol. fan. nomz. diss.*

- Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
16. Rajabova, M. (2021). Alisher Navoiy ijodida folklor janr, motiv va obrazlari stilizatsiyasi. *Filol. fan. dok. diss.* Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
  17. Rajabova, R. (2020). O'zbek bolalar adabiyotida folklor janrlari stilizatsiyasi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
  18. Sarimsoqov, B. (1980). Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir. *O'zbek tili va adabiyoti*, 4, 39–45.
  19. Suvonova, J. (2000). Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy izlanishlar. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
  20. Sultonqulova, F. (2022). Usmon Azim she'riyatida metaforik obrazlar talqini. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Jizzax: Termiz davlat universiteti.
  21. Tursunova, N. (2020). Hozirgi o'zbek drammaturgiyasida folklor stilizatsiyasi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: Navoiy davlat pedagogika instituti.
  22. Vixodsev, S.P. (1989). Na stykhe dvukh khudozhestvennykh kul'tur (Problema fol'klorizma v literature). *O'zbek tili va adabiyoti*, 4, 37–45.
  23. Xolikova, D. (2011). Hozirgi o'zbek she'riyatida folklor an'analari va badiiy mahorat. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
  24. Xotamov, N., & Sarimsoqov, B. (1979). *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati*. Toshkent: O'qituvchi.
  25. Yormatov, I. (1982). Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari. *O'zbek tili va adabiyoti*, 2, 54–58.
  26. Yormatov, I. (1984). Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar. *O'zbek tili va adabiyoti*, 3, 31.
  27. Yo'ldosh, E. (1987). *Moviy turnalar*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
  28. Sharipova, L. (2011). *XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizm*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
  29. Sharipova, L. (2019). *She'riyat va folklor (XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyati misolida)*. Toshkent: "Navro'z" nashriyoti.
  30. Sharopova, N. (1998). Og'zaki lirika janrlariga murojaat etish tamoyili. *O'zbek tili va adabiyoti*, 2, 28–32.

## REFERENCES

1. Abdullayeva, U. (2023). The poetics of performative lyrics in new Uzbek poetry (On the example of the works of Abdulla Oripov and Usmon Azim). PhD thes. philol. scien. Karshi: Karshi State University Press.
2. Atajanov, S. (2021). Erkin Samandar's mastery in the use of folklorisms. PhD thes. philol. scien. Urgench: Urgench State University Press.
3. Bakhtin, M. M. (1972). *Problems of Dostoevsky's poetics*. Moscow: Artistic Literature Publishing House.
4. Buriyeva, F. (2023). The diversity of genres and forms in contemporary Uzbek poetry (On the example of the works of Usmon Azim and Xurshid Davron). *PhD thes. philol. scien.* Samarkand: Samarkand State Pedagogical Institute Press.
5. Hamdam, U. (2012). *New Uzbek poetry*. Tashkent: Writer Publishing House.
6. Hamdam, U. (2017). *The need for renewal*. Tashkent: Science Publishing House.
7. Ismoil, I., & Shermurod, T. (2011). *The works of Usmon Azim*. Tashkent: Tashkent State Pedagogical University Press.
8. Jumaboyev, J. (1999). I will open my chest. *Youth*, 3, 48.
9. Jumaboyeva, J. (2000). The mastery of psychological depiction in 20th century Uzbek poetry. *DSc thes. philol.* Tashkent: Alisher Navoi Institute of Language and Literature Press.
10. Kholikova, D. (2011). Folklore traditions and artistic mastery in contemporary Uzbek poetry. *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent: Alisher Navoi Institute of Language and Literature Press.
11. Khotamov, N., & Sarimsoqov, B. (1979). *Russian-Uzbek explanatory dictionary of literary*

- terms*. Tashkent: Teacher Publishing House.
12. Mamatova, A. (2000). The formation of free verse in Uzbek literature and its artistic-aesthetic features. *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent: Alisher Navoi Institute of Language and Literature Press.
  13. Mamiraliyev, Q. (2024). Genre modifications in Uzbek poetry of the independence period. *PhD thes. philol. scien.* Tashkent: Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature Press.
  14. Mirzayeva, D. (1994). Artistic detail in contemporary Uzbek lyric poetry. *Cand. diss. abs. philol. scien.* Tashkent: Alisher Navoi Institute of Language and Literature Press.
  15. Najimova, Kh. (2025). The essence and literary-aesthetic function of stylized folklorisms. *Philology and Pedagogy*, 13(17).
  16. Nurillaeva, S. (2022). Stylization and metaphorization of mythological images in modern Uzbek poetry. *Cand. diss. abs. philol. scien.* Bukhara: Bukhara State University Press.
  17. Qurbonboyev, I. (2005). Imagery in Uzbek poetry of the 1990s. *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent: Alisher Navoi Institute of Language and Literature Press.
  18. Rajabova, M. (2021). Stylization of folklore genres, motives, and images in the works of Alisher Navoi. *DSc thes. philol. scien.* Bukhara: Bukhara State University Press.
  19. Rajabova, R. (2020). Stylization of folklore genres in Uzbek children's literature. *PhD thes. philol. scien.* Bukhara: Bukhara State University Press.
  20. Sarimsoqov, B. (1980). On the issue of the typology of folklorisms. *Uzbek Language and Literature*, 4, 39–45.
  21. Sharipova, L. (2011). *Folklorism in Uzbek poetry of the 1970s–1980s*. Tashkent: Science Publishing House.
  22. Sharipova, L. (2019). *Poetry and folklore (On the example of Uzbek poetry of the second half of the 20th century)*. Tashkent: New Day Publishing House.
  23. Sharopova, N. (1998). The principle of addressing oral lyric genres. *Uzbek Language and Literature*, 2, 28–32.
  24. Sultonqulova, F. (2022). Interpretation of metaphorical images in the poetry of Usmon Azim. *PhD thes. philol. scien.* Jizzakh: Termez State University Press.
  25. Suvonova, J. (2000). Artistic explorations in contemporary Uzbek poetry. *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent: Alisher Navoi Institute of Language and Literature Press.
  26. Tursunova, N. (2020). Folklore stylization in contemporary Uzbek dramaturgy. *PhD thes. philol. scien.* Tashkent: Navoi State Pedagogical Institute Press.
  27. Vikhodtsev, S.P. (1989). At the junction of two artistic cultures (The problem of folklorism in literature). *Uzbek Language and Literature*, 4, 37–45.
  28. Yoldosh, E. (1987). *Blue cranes*. Tashkent: Literature and Art Publishing House.
  29. Yormatov, I. (1982). Typological features of folklorisms. *Uzbek Language and Literature*, 2, 54–58.
  30. Yormatov, I. (1984). Folklorisms of a stylization character. *Uzbek Language and Literature*, 3, 31.